

Navro'z - ijodkorlar madhida

Namangan viloyati Chust tuman 7-DIMI ning

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Saida To'ychiyeva

Annotatsiya : Ushbu maqolada Navro'z bayramining mohiyat va uning vujudga kelish vaqti hamda nishonlanish jarayonlari, u haqidagi O'rta asrda yozilgan manbalar hamda bayram munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlar shuningdek, istiqloldan keyin Navro'z bayramiga qaratilgan e'tibor haqida tadqiqotchi o'z mulohazalarini bildirgan.

Kalit so'zlar: Navro'z, zardushtiylik, bayram, urf-odat, qadimgi manbalar, katta navro'z, kichik navro'z, yangi kun.

Navro'z -bu tinchlik, totuvlik, farovonlik bayrami. Millati, dinidan qat'iy nazar, shu yurtda yashayotgan barcha millatlar, elatlar uchun birdek sevimli ayyom. Keksa-yu yosh uchun birdek aziz shodiyona!Bu bayram oddiy bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha tasavvurlari, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, millat bilan ulg'ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan bayram. Bu bayram qadim-qadim zamonlardan buyon elimiz ardoqlab kelayotgan, elimizni, yurtimizni ulug'lab kelayotgan bayram.

2010 -yil 23- fevralda Afg'oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Iroq, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyaning tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 21- martni "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'tirof etish haqida qaror qabul qilgan.

YUNESKO e'lon qilishicha, Navro'z muhim oilaviy an'anadir va bu bayramda pishiriladigan taomlar tozalik, farovonlik va boylikni ifoda etadi.BMTning maorif, fan va madaniyat tashkiloti – YUNESKO Navro'zni Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritgan, bu bayram turli tillarda Nawrouz, Novruz, Nowrouz, Nowrouz, Nawrouz, Nauryz, Nooruz, Nowruz, Navruz, Nevruz, Nowruz,

Navruz deb nomlangan.

Navro'z bayramining qachon vujudga kelgani haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan shu narsa ko'rinadiki, u O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda Ahamoniylar davrida (miloddan avvalgi VI asrlarda) keng tarqalgan. Shu ma'noda Navro'zning tarixini 25–30 asrga ega deb taxmin qilish mumkin. Eng qadimgi yozma manbalardan biri – zardo'shtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da (mil. av. IX asrdan VI asr boshlari) ham Navro'z haqida fikrlar bildirilgan. Unga ko'ra, bahor qaytishi yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini anglatgan.

Navro'z qachon, qanday vujudga kelganidan qat'i nazar, u har tomonlama ilmiy asoslanib, koinot va tabiat qonuniyatlari hisobga olingan holda joriy etilgan. Chunonchi, quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha-kunduzning tenglashishi, tabiatning jonlanishi – Navro'z deb qabul qilingan. Navro'z eski quyosh kalendari hisobida farvordin oyining boshlanishiga (hozirgi 22 martga) to'g'ri kelgan. Bu kun «kichik Navro'z» deb atalgan va bu kundan boshlab tabiatdagi hamma narsa amalga kiradi, deb hisoblangan. Beruniy «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida “kichik Navro'z” farvordin oyining oltinchi kunigacha davom etganligini ta'kidlaydi.

Islomgacha bo'lgan Navro'zda oddiy xalqqa tegishli bo'lgan odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlar bir-biriga shakar va shirinliklar hadya qilish (hayotingiz shirin bo'lsin degan ma'noda), bir-biriga suv sepish (bu yil suv ko'p bo'lsin, hosil yaxshi bo'lsin degan ma'noda) va boshqa odatlar keng tarqalgan. Keyingi asrlarda esa hovli-joylarni tozalash, ko'kat va gullar ekish, ota-ona, yoru do'stlarni ziyorat qilish, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navro'z bayramining tarkibiy qismiga aylangan.

Navro'z haqida tarixiy, adabiy manbalar ko'p. Mahmud Qoshg'ariy, Beruniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning asarlarida va boshqa manbalarda Navro'z bayrami, u bilan bog'liq urf-odatlar haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan asarida bu bayramga katta o'rin ajratadi. Uning kelib chiqishi, tarixi

haqida fikr yuritadi. Biroq, eng bu muhimi bu azaliy qadriyatning bizning kunimizgacha yashab kelayotgani, Navro'z bilan bog'liq an'ana, urf-odat va marosimlarning hamon elimizning ardog'ida ekanligining o'zi eng ishonchli va mu'tabar manbadir

O'zbekistonda Navro'z milliy o'zlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Sovet O'zbekistonida ham Navro'z taqiqqa uchragandi. 1990 yillar boshlarida Navro'z qayta tiklandi va umumxalq bayrami sifatida keng nishonlana boshladi.

Hamma joyda Navro'z oila bilan birga bo'lish, do'st-yorlarni ziyorat qilish hamda marhumlar xotirasiga hurmat bajo keltirish fursati bo'lib kelgan. Navro'z bayramida ommaviy xalq sayillari uyushtirilgan, yangi unib chiqqan ko'katlardan, bahoriy taomlar: sumalak, halim, ko'ksomsa, ko'kchuchvara kabi tansiq taomlar pishirilgan. O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan keyin boshqa qadriyatlar qatori Navro'z bayrami ham qayta tiklandi. U hozir mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. Har yili mamlakatimizdagi barcha shahar va qishloqlarda bayram sayillari, tomoshalar, boshqa bayram tadbirlari o'tkazilyapti, xayriya tashkilotlari yordamida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, urush va mehnat faxriylari, yolg'iz keksalar, nogironlar holidan xabar olinmoqda, ularni bayram bilan qutlab, turli sovg'alar, xayr-ehsonlar taqdim etilmoqda.

Ta'kidlash joizki, Navro'z ayyomi xalqimiz uchun sharqona yangi yilning boshlanishi, eng qadimiy, asl milliy, eng ardoqli bayramdir. Navro'z bayramining biror bir din yoki e'tiqodga umuman daxli yo'q bo'lib, ushbu kun azal sharq xalqlarida yangilanish, yasharish bayrami, dehqonchilik mavsumining boshlanishi, yangi hayot pallasini sifatida ko'rilgan. Navro'z o'tmishda qandaydir diniy mazmunga ega bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo u bugunda bunday mazmundan mahrum bo'lib, millati, dini, irqi, ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, barcha xalqlarga mansub dunyoparvar insonlarning eng xalqchil ayyomiga aylanib ulgurgan.

Aynan ko'klam paytida fasllar almashinuvi, tabiatning qayta tirilishi, uni jonlantirish bilan bog'liq «Qozon to'ldi» kabi qadimiy marosimlar, qo'chqor, xo'roz urishtirish tomoshalari, polvonlar kurashi, baxshilar bellashuvi, sumalak, lola sayllari bo'lib o'tgan. Ushbu marosim va sayllar mohiyatan inson hayotini yanada

yaxshilash, tabiat mushkulotlarini yengillashtirish, kelayotgan ko'klam va yangi yilni qutlab, uning qut-barakali o'tishini Yaratgandan so'rash, turli o'yin, harakat, qo'shiqlar asosida kelayotgan yilning qanday bo'lishini chamalab ko'rishga xizmat qilgan. Ushbu e'tiqod va u bilan bog'liq marosimlar tizimi elimiz orasida bugungi kungacha yashab kelmoqda.

Navro'z haqidagi afsonalarning birida ajdodlarimiz temir qoyani eritib, yangi makonga chiqqanligi, shu kunni yangi kun, yilning boshi, deb atagani aytiladi. Temir qoyaning eritilishi, temirchilik sirlarining kashf etilishi bu albatta o'z davri uchun katta bir inqilob, yangi bir tamaddunning boshlanishi edi.

Bugun insoniyat texnika taraqqiyotida juda ilgarilab ketdi, yuksak bir sivilizatsiyaga erishdi. Ana shu evrilishlarda, ana shu tamaddunda qachonlardir omoch haydab, tabiat, koinot haqida tafakkur qilgan ajdodlarimizning ham ulkan hissasi borligini, bu o'lka hamisha ilmu ma'rifat, madaniyat va tafakkur beshigi bo'lib kelganligini unutmasligimiz lozim. Mana shu ko'p jildliklarning ichida Navro'z bilan bog'liq xalq og'zaki ijodi namunalarining alohida o'rni bo'ladi. Bu jilddan Navro'z bilan bog'liq urf-odat va marosim qo'shiqlari, bolalar folklori, xalq o'yinlari, afsona va rivoyatlar o'rin oladi. Bu esa kelgusida Navro'zni yanada kengroq o'rganish va tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Navro'zda tinchlik va birdamlik, totuvlik va ahil qo'shnichilik kabi ulug' qadriyatlar ilgari suriladi, oqsoqollar notinch oilalarni yarashtirib ularni saqlab qolishga harakat qilishadi, bunday qadriyatlar esa madaniy marosimlarda madaniy xilma-xillik va insonparvarlik, sog'lom turmush tarzi va yashash sharoitini yanglash kabi odatlarni avloddan-avlodga o'tib kelishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirova M., Holiqov E., Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. –T.:Innavatsiyaziyo. 2021. 74 b.
2. O'zbekiston SSR Prezidentining Farmoni, 12.02.1991 yildagi PF-143-son. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 5-son, 96-modda)

3. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.
4. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB / Экономика и социум. – С.18-21.
5. Umid Adambayev. (2021). MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI / Scientific progress. – pp. 1858-1862.